

O'ZBEK TILIDA "NON" KONSEPTI BILAN BOG'LIQ FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Po'latova Zilola Maxmud qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592420>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida "non" so'zi bilan bog'liq frazeologizmlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning semantik guruhlanishi, ularning xalq madaniyati va mentaliteti bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Maqolada tilshunoslik, frazeologiya, etnolingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Kalit so'z: Lingvokulturologiya, konsept, non uzvi, parema, qadriyat, mentalitet.

Абстрактный. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются фразеологизмы, связанные со словом «хлеб» в узбекском языке. Рассмотрена семантическая группировка фразеологизмов, их связь с национальной культурой и менталитетом. К исследованию подходили с точки зрения языкознания, фразеологии, этнолингвистики и культурологии.

Ключевое слово: Языковая культура, концепт, структура хлеба, парема, значение, фразеология, менталитет.

Abstract. This article analyzes phraseologisms related to the word "bread" in the Uzbek language from a linguocultural point of view. The semantic grouping of phraseological units, their connection with folk culture and mentality are considered. The study is approached from the points of linguistics, phraseology, ethnolinguistics and cultural studies.

Keywords: Linguo-culturology, concept, breadcrumb, better, value, phraseology, mentality.

Frazeologizmlar har bir tilning madaniy va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilida "non" so'zi bilan bog'liq frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. "Non" qadimdan muqaddas ne'mat hisoblangan va unga nisbatan hurmat xalq tili va og'zaki ijodida o'z aksini topgan.

O'zbek tilida non uzvli frazeologizmlar salmoqli o'rin tutadi: *nonini tuya qilmoq, noni butun, noni yarimta, bitta noni ikkita bo'lmoq, non yemas, non bermas, nonini halollamoq, non topmoq, non gadoyi, non yemoq, non sindirmoq, birovning nonini yarimta qilib qo'ymoq, non-u qoq bilan kun kechirmoq, o'z ko'machiga kul tortmoq, suvga tushgan nondek shilqillab qolmoq, non yemaslik, non ursin, non ko'r qilsin, noni ko'paysin, birov bilan non-qatiq bo'lmoq, nonni moy bilan yemoq, non qorinning ketidan yurmaydi, xamir uchidan patir, birovning noni qorin og'ritar, non-namak bo'lmoq, nondan benasib bo'lmoq* kabilar.

Non uzvli frazeologizmlarni ma'no o'ttenkasiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijobiy ma'nodagi non uzvli frazemalar: *noni ko'paysin, noni butun, nonni moy bilan yemoq, bitta noni ikkita bo'lmoq, nonini halollamoq, non topmoq, non sindirmoq.*
2. Salbiy ma'nodagi non uzvli frazemalar: *non ko'r qilsin, non ursin, nonini tuya qilmoq, noni yarimta, non yemas, non bermas, non gadoyi, birovning nonini yarimta qilib qo'ymoq, non-u qoq bilan kun kechirmoq, nondan benasib bo'lmoq.*

Non uzvli frazeologizmlarning har biri o'ziga xos ma'no-mundarijasiga ega.

Non(i)ni tuya qilmoq – mazkur ibora "O'zbek tilining izohli lug'ati" va boshqa

lugʻatlarda qayd etilgan boʻlib, “boʻsh-bayovligidan foydalanib, birovga tegishli haqning maʼlum qismini olmoq, oʻzlashtirmoq, aldab-sulda haqini oʻzlashtirmoq” maʼnolarini bildirib, salbiy baho (uslubiy boʻyoq) semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, feʼl frazema. “*Boʻshanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq*”, – oʻyladi Yoʻlchi. (Oybek, Tanlangan asarlar). [1;146]

Non(i) butun – (ot + sifat) ushbu ibora “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” va “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻat”ida qayd etilgan boʻlib, “*tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yoʻq, bekam-u koʻst, toʻkis*” maʼnolarini bildirish bilan birga ijobiy baho (uslubiy boʻyoq) ham ifodalangan, birikmaga teng, sifat frazema. *Sartarosh u dunyo, bu dunyo xor boʻlmaydi. Hamma vaqt noni butun (dedi kampir Shodiga)* (Э.Раимов, Ажаб кишлок).

Noni yarimta mazkur ibora “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da qayd etilgan boʻlib, “*biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolgan*” [1;57] degan maʼnoni anglatadi, birikmaga teng, sifat frazema. Varianti: *Non(i) yarimta boʻldi* biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolgan.

Bitta noni ikkita boʻldi – mazkur ibora lugʻatlarda qayd etilmagan, “*tinmay mehnat qilishi natijasida tirikchiligi yaxshilanmoq, roʻzgʻori but boʻlmoq*” maʼnolari ijobiy baho (uslubiy boʻyoq) semasi bilan qoplangan, gapga teng, feʼl frazema. *Nima, Qobilov kelib, nonimiz yarimta boʻlib qoldimi, aksincha, qoʻlni- qoʻlga berib ishlangiz, bitta noningiz ikkita boʻladi.* (С.Махкамов, Шоғирд).

Non yemas – xalqimizda “*pishiq, ziqna, ortiqcha sarf-harajatga toqati yoʻq inson*”ga nisbatan mana shunday ibora qoʻllanadi. Frazemaning ifoda plani birikmaga teng, pishiq, ziqna maʼnolari bilan birga salbiy baho (uslubiy boʻyoq) ham ifodalangan, sifat frazema. *Avvalgi rahbarlar bilan oramiz yaxshi edi. Bunisi yangi odam, oʻlgudek non yemas koʻrinadi. Oʻsha kuniyam Soʻpoq damlab qoʻygan oshga turmay ketdi-qoldi.* (Ў. Ҳошимов, Икки эшик ораси, 236-б.)

Non bermas - ziqna, haddan ortiq pishiq insonga nisbatan aytiladi. Birikmaga teng, salbiy baho semasi bilan ifodalangan, sifat frazema.

Non topmoq (ot+feʼl) mazkur ibora lugʻatlarda qayd etilmagan, badiiy asarlarda uchraydi, “*mehnat qilib, ishlab, tirikchilik uchun pul topish*” semasiga ega, birikma shaklida, feʼl frazema, frazemaning salbiy yoki ijobiy baho sema ifodalashi kontekst mazmunidan kelib chiqadi. Varianti: *nonini topib yemoq. Eh- ha, bu bolalar qachon ulgʻayadi-yu qachon oʻzining nonini topib yeydigan boʻladi!* (Ғ. Ғулом, Менинг ўғригина болам). *Men bu yerga soʻfilik qilib, maktab tutib non topgani kelgan emasman, padari buzrukvorim oʻzlariga toʻq kishi. Men qishloqqa ilm-maʼrifat urugʻini sochgani kelganman.* (А. Қаххор, Ўтмишдан эртақлар, 153-б.)

Non gadoyi frazemasi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da qayd etilgan. Varianti: *Non gadoyi boʻlib qolmoq.* “Nonga zor”, “kambagʻal-qashshoq” degan maʼnolari bilan birga salbiy baho semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, sifat frazema. *U yo oʻzini oʻldirardi, yo xizmatkor yigit bilan bir yurtga qochib, kambagʻallikda, non gadoyi boʻlib yashardi.* (Oybek, Tanlangan asarlar). *Oqpodshohning urushi boylarga huzur-halovat keltirdi, lekin fuqaroni non gadoyi qildi.* (Oybek, Кутлуғ қон, 176-б.)

Non yemoq frazemasi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” va frazeologik lugʻatlarda qayd etilgan. Maʼnosi: “*kim biror narsadan foydalanib tirikchilik oʻtkazmoq, kun kechirmoq*”. Varianti: *nonini yemoq.* “*Oshnangiz igʻvo bilan non yeb yurgan mansabparast bir odam*”, - dedi Shukurjon. (О.Ёкубов. Ота изидан)

Non sindirish (ushatish) mazkur frazema ‘O‘zbek tilining izohli lug‘ati’da qayd etilgan. Nikoh to‘yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya‘ni uning ota- onalari sovchi yuborgan tomonga o‘z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to‘y bilan bog‘liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi. – *Ha-a, mening qizimni aytayapsizmi? Keldi, keldi, hali-hozircha eskichasiga non sindirib qo‘ydik. – Non sindirdilaringizmi?* (T. Мурод, Отамдан қолган далалар, 129-б.)

Birovning nonini yarimta qilib qo‘ymoq frazemasini “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at’da qayd etilgan. “*ishini, daromadini tortib olmoq*” ma‘nosiga teng. Fe‘l frazema, kengaygan birikma. *Dadam ketmonni tez va yaxshi peshlashi ustiga xat bilishi, nazarimda, bozorboshidagi usta Turdialining nonini yarimta qilib qo‘ydi.* (A.Қаххор, Ўтмишдан эртақлар, 107-б.)

Non-u qoq bilan kun kechirmoq frazemasini “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at’da qayd etilgan bo‘lib, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. Ushbu frazemaning mazmun planida “*ro‘zg‘orini zo‘rg‘a tebratmoq*”, “*qiyinchilikda, qattiqchilikda yashamoq*” ma‘nolari ifodalangan, fe‘l frazema. *Bizning xorimizda faqat Motining ahvoli durustroq xolos, chunki u boy xo‘jayinning qo‘lida turadi, qolgan hammamiz non-u qoq bilangina yashaymiz.* Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 3-ж. – Б. 57.

Suvga tushgan nondek shilqillab qolmoq frazemasini lug‘atlarda qayd etilmagan, uning mazmunida “*bo‘shashmoq*” ma‘nosi ifodalangan, birikmaga teng, fe‘l frazema. *Bir necha kunlardan beri Safar bo‘zchi xursand edi. Mulla Abdurahmonning xizmatidan chiqishga o‘zim sababchi bo‘ldim, deb o‘ylar; o‘z so‘zi bilan mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvga tushgan nondek shilqillab qolishiga “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat, mullavachcha!” deb o‘zicha kulib qo‘yar edi.* (A. Қодирӣ, Меҳробдан чаён, 154-б.)

Non ursin iborasi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati’da qayd etilgan bo‘lib, nonni o‘rtaga solib qasam ichishni bildiradi. O‘zbek xalqi orasida qasam ichish yoki qarg‘ash hollarida nonni o‘rtaga qo‘yishadi, chunki u muqaddas, undan yuqori ne‘mat yo‘q ekanligini hamma birday tushunadi. Non lafzi halollik, to‘g‘rilik, iymonu vijdon ramzi hamdir. Non qo‘yilgan joyda yolg‘on so‘zlamaslik, nonni ushlab ichilgan qasamga xiyonat qilmaslik buning isbotidir. *Nima qilay, -dedim jiqqa yosh to‘la ko‘zlarimni ko‘ziga qadab. – Ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko‘r qilsin, Kimsan aka!* (Ў. Ҳошимов, Икки эшик ораси, 90-б.)

Noniga sherik bo‘lmoq iborasi lug‘atlarda qayd etilmagan. Badiiy matnlarda uchraydi. *Usta Mo‘minning o‘zi besh jon, biz to‘rt jon. Bularning noniga sherik bo‘lishimiz na ammamga, na uning eriga hech qanchalik malol kelmasa ham, “mehmonning izzati uch kun”.* (A. Қаххор, Ўтмишдан эртақлар, 164-б.)

Gadoydan non tilaydigan frazemasini lug‘atlarda uchramaydi, badiiy matnda kuzatishimiz mumkin. Gadoydan non tilaydigan frazemasining semantik tarkibida “*qashshoq, haddan tashqari kambag‘al*” ma‘nolari salbiy baho (uslubiy bo‘yoq) semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, sifat frazema. *Qiziq ekansan, oyog‘idagini yechib beradimi, bu yerdagilar hammasi – gadoydan non tilaydigan qashshoqlar; – juftingni qanoting ostiga olib ucha ket, lochin!* (Ойбек Қутлуғ қон, 228-б.)

Birov bilan non-qatiq bo‘lmoq – mazkur ibora “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at’da qayd etilgan bo‘lib, “*kim bilandir yaqin tanish bo‘lib ketmoq, do‘st bo‘lmoq*” ma‘nolarini ifodalaydi.

Nonni betashvish yemoq frazemasini lug‘atlarda uchramaydi, badiiy matnda kuzatishimiz mumkin, “*hotirjamlikda yashamoq, tinchlikda hayot kechirmoq*” mazmuniga ega, fe‘l frazema.

Manzura shubhasiz, qaynona-qaynotasining umri o'tgan, erining kindik qoni to'kilgan shu eski hovlini, bir tishlam nonni betashvish yemoq baxtini tanlagan bo'lardi. (Т.Малик, Шайтанат, 4-жилд, 284-б.)

Non-namak bo'lmoq – suhbatda bo'lmoq, birgalikda ovqatlanmoq; biror o'tirishda, mehmonda birga bo'lmoq.

Non-u qoqqa bog'lamoq – mazkur frazema “Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at”da keltirilgan bo'lib “o'zini yeyishdan, ichishdan siqmoq” degan mazmunga teng.

Pulga non topilmaydigan iborasi lug'atlarda qayd etilmagan, badiiy matnda uchraydi. “*Qiyin zamon, og'ir sharoit*” degan ma'noni bildiradi. *Narx-navo ko'tarilib ketdi. Qimmatchilik hademay pulga non topilmaydigan qahatchilikka aylandi.* (А.Қаххор, Ўтмишдан эртақлар, 132-б.)

Non(i)ni halollamoq iborasi lug'atlarda ko'rsatilmagan. “*Topgan pulini, yoki birovdan ko'rgan yordami evaziga mehnati bilan javob qaytarish*” kabi ma'nolarni bildiradi. Birikmaga teng, fe'lli birikma.

Non yemaslik – ushbu frazema lug'atlarda keltirilmagan. Badiiy mantda kuzatiladi. *Anvar ikki muftining g'iybatlarini yaxshi bilsa ham, Abdurahmonning bu g'iybatida ishtiroki borligini sezmas edi. Faqat yaqindan beri Sultonali mirzo Abdurahmonning bunda ishtiroki borligiga voqif bo'ldi. Hatto shu to'g'rida Anvarga ba'zi so'zlarni ham aytdi. “Mulla Abdurahmondan non yemaymiz, sizga qarshi qattiq quturgan ikki itimiz bor edi, endi uchinchisini o'zingiz keltirganga o'xshaysiz...”* (А.Қодирий, Меҳробдан чаён, 146-б.)

Non-tuzini yemoq – biror joyda mehmon bo'lib, non, tuz yeb o'sha joy bilan o'zaro aloqada bo'lgan kishilarni ifodalaydi. Oybekning Navoiy romanida “Men bu yurtning non-tuzini yeganman, Alisherbek. Bu xalqni dardida dardim, quvonchida quvonchim bor...” Bu misolda “non tuzini yemoq” iborasi xalq bilan birga yashash, unga sadoqatli bo'lish, xizmat qilish ma'nosida qo'llangan.

Non topmoq – bu frazeologizm o'z tirikchiligini o'tkazish uchun ish topish yoki o'z daromadini rivojlantirish, hayotda o'z o'rnini topish semasida qo'llanadi.

Noniga sherik bo'lmoq – kambag'al yoki mehnatkash insonning tirikchiligi yoki rizqiga ortiqcha aralashish shuningdek hamdardlik saxiylik va insoniylik ma'nolarida ishlatiladi. “O'tgan kunlar” romanida “Otabek kambag'allar holidan xabardor edi, u doimo yordam berishga tayyor turar edi. Ayniqsa qishloqqa chiqqanida, faqir bir kampirga non tutqazib: “Nonimga sherik bo'l, ona” derdi. Bu yerda: “Nonimga sherik bo'l” deyish orqali Otabekning saxiyligi, mehribonligi va insonparvarligi ifodalangan. Bu ibora obrazni ijobiy ma'noda ochishga xizmat qilgan.

Noni qattiq – o'z rizqi uchun ko'p mehnat qiladigan, qiyinchilik bilan tirikchilik qiladigan odamni ifodalaydi. Asqad Muxtorning “Dunyo bolalari” to'plamidagi hikoyalarida bolalarning og'ir hayoti, qashshoqlik va mashaqqatli mehnatlari tasvirlangan.

Nonini qo'ldan bermoq – o'z ishini yo'qotmoq, rizqidan ayrilmoq ma'nosida ishlatiladi.

Nonga zor bo'lmoq – qattiq qashshoqlikka tushmoq, rizqidan ayrilmoq ma'nosida ishlatiladi.

Nonni ko'zga surtmoq – minnatdorchilik bildirish, qadrlash ma'nosida ishlatiladi

Nonni oyoq osti qilmoq – qadrsizlantirmoq, hurmatsizlik qilmoq ma'nosida ishlatiladi.

Bu frazeologizmlar o'zbek tilining boyligini va nonning o'zbek xalqining hayotida qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Non so'zi nafaqat o'zbek tilida balki ko'plab xalqlarda ham juda chuqur kulturologik ma'noga ega. U nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki

hayotiy qiymat va mehnatning ramzi sifatida qabul qilinadi. Nonning lingvokulturologik tahlili uning madaniy diniy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Frazologizmlarning semantik va lingvokulturologik tahlili, xalqning o'ziga xos dunyoqarashi va mentalitetini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu iboralar xalqning madaniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettirib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

REFERENCES

1. Кошғарий М. Девону луғотит – турк (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –482 б.
2. Raxmonov S., “O‘zbek marosimlarining ildizlari”, T.: Akademnashr, 2015, 112-bet
3. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 511 b.
4. Ўзбек халқ мақоллари: (Тўплам). / (Редкол.: К.Имомов ва бошқ.;
5. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусоқулов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1989
6. Sharipova, M. (2023). O ‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA’LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
7. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
8. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O‘YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
9. MA’NAVIY, Y. A. R. V., & O’RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. *Maktabgacha ta’lim*.
10. SHARIPOVA, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O‘ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
11. Baxshilloyevna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA SUNNAT TO ‘YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.
12. Baxshilloyevna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O ‘RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Научный Фокус*, 1(2), 1096-1100.
13. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA’LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
14. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
15. Sharipova, M., Ro‘ziboyeva, Z., & Yovqocheva, H. (2024). FEATURES OF ACHIEVEMENT OF A CAREER IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(5), 1370-1376.